

**Buxoro davlat universiteti  
o'quv-metodik kengash 11-sonli  
yig'ilishining bayonnomasidan**

**K O' C H I R M A**

**27.06.2022**

**Buxoro shahri**

**K U N T A R T I B I:**

**1. Turli masalalar.**

Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchilari M.X. Urakova, M.M. Tairova, Z.A. Qayimovalarning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun "Korxoná iqtisodiyoti fanidan kurs ishini bajarish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma tavsiya etish.

**E S H I T I L D I:**

**M.Y. Farmanova (kengash kotibasi)** Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchilari M.X. Urakova, M.M. Tairova, Z.A. Qayimovalarning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun "Korxoná iqtisodiyoti fanidan kurs ishini bajarish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu uslubiy qo'llanmaga: BuxMTI Iqtisodiyot kafedrası dotsenti A.Ch. Boboyev va Iqtisodiyot kafedrası dotsenti F.M. Raxmatullayevalar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Uslubiy qo'llanma muhokamasi haqidagi Iqtisodiyot va turizm fakulteti (2022-yil 28-may) va Iqtisodiyot kafedrası (2022-yil 21-may) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

**Q A R O R Q I L A D I:**

**1.** Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchilari M.X. Urakova, M.M. Tairova, Z.A. Qayimovalarning 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari uchun "Korxoná iqtisodiyoti fanidan kurs ishini bajarish" deb nomlangan uslubiy ko'rsatma nashrga tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi

O'quv-metodik kengash kotibasi



**R.G'. Jumayev**

**M.Y. Farmanova**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI**

**IQTISODIYOT  
KAFEDRASI**

**“KORXONA IQTISODIYOTI”  
fanidan kurs ishlarini bajarish bo'yicha**

**USLUBIY KO'RSATMA**

*Tuzuvchilar: katta o'qituvchi Tairova M.M.  
katta o'qituvchi Urakova M.X.  
katta o'qituvchi Qayimova Z.A.*

**Buxoro–2022 yil**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI, “IQTISODIYOT” KAFEDRASI KATTA O’QITUVCHILARI M.M.TAIROVA, M.X.URAKOVA, Z.A.QAYIMOVA 5230100–"IQTISODIYOT" (TARMOQLAR VA SOHALAR BO`YICHA) YO`NALISHI TA`LIM TALABALARI UCHUN “KORXONA IQTISODIYOTI” FANIDAN KURS ISHI YOZISH BO`YICHA USLUBIY KO`RSATMA. B.: BUXDU, 2022 YIL. 20 BET.**

**ANNOTASIYA: Uslubiy ko’rsatmada umumiy qoidalar, kurs ishining mavzusini tanlash va uni bajarish muddatlari, kurs ishining tuzilmasi va mazmuni, kurs ishini rasmiylashtirish va baholash tartibi, mavzular, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro’yxati va ilovalar ko’rsatilgan.**

**TAQRIZCHILAR:**

- 1. Raxmatullayeva F.M., BuxDU, “Iqtisodiyot ” kafedrası dotsenti, i.f.n.**
- 2. Boboyev A.Ch., BuxMTI, “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.**

## UMUMIY QOIDALAR

Kurs ishi talabalarning dastlabki ilmiy ishi hisoblanadi. Kurs ishlari talabalar mustaqil ishlarining bir shakli bo`lib, uni muvaffaqiyatli bajarish uchun fan to`g`risida aniq tasavvurlarga ega bo`lishlari kerak. Talabalar kurs ishining ilmiy, nazariy, g`oyaviy darajasiga, shuningdek, uning yozilishi va rasmiylashtirish tartibiga e`tibor berishlari lozim.

Ishni bajarish jarayonida talabalar kursga oid nazariy bilimlar, maxsus adabiyotlar, huquqiy-normativ aktlar, mavzuga oid yondashuvlardan xabardor ekanligini hamda tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish ko`nikmalarini ko`rsatishadi.

### Kurs ishi maqsadlari:

- Talabalarning “Korxonalar iqtisodiyoti” fani bo`yicha ma`ruza va amaliy mashg`ulotlari jarayonida orttirgan nazariy bilimlari va amaliy ko`nikmalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash hamda tizimlashtirish.
- Kurs ishiga oid muammolarni yechishda mustaqil ishlash hamda izlanish olib borish ko`nikmalarini rivojlantirish.
- Talabaning nazariy va amaliy bilimlari hamda bu bilimlarni dolzarb iqtisodiy muammolarni echishga tadbiq qila olish qobiliyati darijasini aniqlash.
- Kurs ishini yozish natijasida talabalar ijodiy fikrlay boshlaydi. Bu esa ularga kelgusidagi bitiruv malakaviy ishi va ilmiy ishlarini yozishida katta yordam beradi.

### Kurs ishi vazifalari:

- ✓ Tanlangan mavzuning dolzarbligi va ahamiyatini asoslash.
- ✓ Tanlangan mavzuga oid nazariy ma`lumotlar, texnik-normativ hujjatlashtirish, statistik ma`lumotlar, ilmiy adabiyotlarni o`rganish.
- ✓ Mavzuga oid muammoli vaziyatlarga o`z fikrini bildira olish.

- ✓ Tanlangan mavzuni o'rganish va o'tkazilgan tahlillarga asosan xulosalar chiqarish hamda takliflarni shakllantirish.
- ✓ Talab qilingan me'yorlarga asosan kurs ishini rasmiylashtirish.

### **KURS ISHINING MAVZUSINI TANLASH VA UNI BAJARISH MUDDATLARI**

Talaba kurs ishi mavzusini tanlashda dastlab shu fan bo'yicha professor-o'qituvchining ma'ruzalarini diqqat bilan tinglab, hozirgi zamon iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni hamda Prezident asarlarini chuqur o'rganib chiqishi lozimdir.

Kurs ishi mavzusini (1-ilova) talaba o'zi ixtiyoriy ravishda tanlaydi va quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi kerak: Tahlil qilinayotgan mavzusini katta qiziqish bilan o'rganishi, o'zining bilim darajasini kengaytirishi va uni kelajakda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashi uchun amaliyotga tadbiq qila olish imkoniga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Kurs ishining rahbari sifatida kafedraning tajribali o'qituvchilari kafedra tomonidan tayinlanadi.

Kurs ishini bajarishda mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan adabiyotlar ro'yxati (5-ilova) bilan cheklanmasdan, ayrim masalalarni batafsil bayon qilish imkonini beradigan qo'shimcha adabiyotlardan ham foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Korxonalar iqtisodiyoti» fanidan kurs ishini tayyorlash va himoya qilish yo'nalishining o'quv rejasiga muvofiq 6-semestrda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Uni tayyorlashning asosiy muddatlari quyidagicha:

- Mavzu tanlash:
- Adabiyotlarni ko'rib chiqish, reja tuzish, ilmiy rahbar bilan rejani tasdiqlash va ilmiy rahbar fikrlarini inobatga olib, matnning asosiy variantini tayyorlash:
- Kurs ishini tayyorlab (kafedraning maxsus jurnalida ro'yxatga olinadi)

- Ijobiy taqriz yozilgan kurs ishlari himoyaga qo'yiladi. Himoya quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

- ✚ ochiq himoya;
- ✚ individual himoya;
- ✚ kichik guruhda himoya.

Muallif ishning asosiy natijalari, xulosa va takliflari bildirilgan taqdimot asosida himoyani amalga oshiradi. Chiqish vaqti – 7 minut. Ishning samaradorligini va o'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish maqsadida ko'rgazmali materiallardan foydalanilishi maqsadga muvofiq.

### **KURS ISHINING TUZILMASI VA MAZMUNI**

Kurs ishi matnini yozish talabdan katta mas'uliyat talab qiladi va ish vaqtning asosiy qismini egallaydi. Uni yozishda talaba o'zining bilimi va qobiliyatini namoyon qilishi kerak. Rejadagi savollar mantiqan bir-birlari bilan bog'langan bo'lishi, har bir keyingi savol o'zidan oldingi savolning mantiqan davomi bo'lib, bir butunni tashkil etishi kerak.

Tanlangan mavzudan qat'iy nazar ishning tuzilmasi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

- ❖ Titul varag'i (1-bet) (2-ilovada namuna keltirilgan)
- ❖ Ilmiy rahbarning kurs ishiga taqriz blankasi (2-bet) (4-ilovaga qarang)
- ❖ Mundarija (3-bet) (3-ilova)
- ❖ Kirish (4-6 betlar)
- ❖ 1-bob. Mavzu yoki muammoni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari
- ❖ 1.1. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.2. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.3. birinchi bobning paragrafi
- ❖ 1.4. birinchi bobning paragrafi (agar zarur hisoblansa)
- ❖ 2-bob. O'rganilayotgan mavzu yoki muammoning tahlili, echimiga oid taklif va chora-tadbirlar

- ❖ 2.1. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ 2.2. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ 2.3. ikkinchi bobning paragrafi
- ❖ Xulosa
- ❖ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ❖ Tayanch iboralar
- ❖ Ilovalar (agar mavjud bo'lsa)

**Kurs ishining kirish qismida** mavzuni o'rganish va rivojlantirishning asosiy tendensiyalari ko'rib chiqiladi, joriy vaziyat tahlil qilinadi, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati asoslanadi, asosiy maqsad va vazifalar shakllantiriladi. Bundan tashqari kurs ishining ob'ekti, predmeti, tuzilmasi, izlanish olib boriladigan soha tahlil qilinadi. Kirish qismining hajmi kurs ishi umumiy hajmining 10% dan oshmasligi kerak.

**Kurs ishining birinchi bob** odatda, o'rganilayotgan mavzuning nazariy jabhalariga bag'ishlanadi va qolgan materialni yoritishning asosi bo'lib xizmat qiladi. O'rganilayotgan jarayonning tabiati, mazmuni va tarkibiy qismlari ko'rib chikiladi.

Ishni mavzuning ob'yekti va predmetini tavsiflashdan boshlash maqsadga muvofiq. Shundan so'ng kichik tarixiy sayohat uyushtirib, mavzuning o'rganilganligini aytib o'tish, savollarni ko'rib chiqish va, albatta, o'z nuqtai nazarini yoritish lozim. Bu bobda adabiyotlarga tavsif beriladi, konstepsiya shakllantiriladi, o'rganilayotgan mavzu tahlili uslubi asoslanadi. Adabiyotlarga tavsif berish jarayonida turli mualliflar fikrlarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinib, o'z nuqtai nazari asoslanishi kerak. Uslubiy qism axborot yig'ish, uni tahlil qilish va qayta ishlash usullari tavsifini nazarda tutadi. Har bir bob yangi sahifadan boshlab yozilishi kerak, undagi paragraflar esa tugagan joyidan 2 qator tashlab keyingisini yozish tavsiya etiladi.

**Kurs ishining ikkinchi bobida** birinchi bobda yoritilgan nazariy va uslubiy asoslarga tayangan holda shu mavzu bilan chegaralangan sohadagi ishlarning joriy ahvoli tahlil qilinadi. Buning uchun amaldagi normativ aktlar, ilmiy-amaliy konferenstiyalar materiallari, ilmiy ishlar natijalari, statistik ma'lumotlar (ham davlat miqiyosidagi, ham yakka korxonalar miqiyosidagi) qo'llanilishi mumkin. Tahlillarga asos bo'lib hisoblanuvchi materiallar kerakli darajada to'liq va ishonarli bo'lishi kerak, qaysikim ularga asoslanib zahiralarni aniqlash va keyingi faoliyat davomida ishlatish mumkin bo'lsin. Bundan tashqari, talaba mavjud faktlarni sanab o'tish bilan cheklanmasdan, ularning afzallik va kamchiliklarini ham yoritishi kerak.

Tahlillar natijalariga asoslanib talaba takliflarni shakllantiradi. Takliflarni shakllantirish o'rganilayotgan mavzuga oid kamchiliklar va imkoniyatlarning to'liq va asoslangan yoritilishini nazarda tutadi.

**Kurs ishining xulosasi** – bu ish davomida topilgan ma'lumotlar sintezidir, ya'ni bunda olib borilgan izlanishlar natijasida qilingan xulosalar mantiqiy ketma-ketlikda bayon qilinadi. Bundan tashqari asosiy xulosalar va izlanish natijalariga asoslanib takliflar bayon qilinadi. Xulosa hajmi kurs ishi hajmining 5-10%ini tashkil etishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** kurs ishida o'z ifodasini topishi kerak. Foydalanilgan adabiyotlarni guruhlashning eng keng tarqalgan usuli – bu alifbo tartibida joylashtirishdir. Kitob va maqolalar muallif familiyasi yoki kitob, maqola nomi (agar muallifi ko'rsatilmagan bo'lsa) orqali alifbo tartibida joylashtiriladi. Shundan so'ng nashr etilgan joy va sana ko'rsatiladi. Agar jurnal materiali ko'rsatilsa, muallif familiyasi, ismi, otasining ismi, maqola nomi, jurnal nomi, nashr yili va soni ko'rsatilishi zurrur.

**Tayanch iboralar** foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgandan so'ng joylashtiriladi. Unda kurs ishida yoritilgan terminlar, iboralar keltiriladi.

**Ilovalarga** jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar, statistik ma'lumotlar, boshqaruv, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi hujjatlar



joylashtirilishi mumkin. Har bir ilova yangi sahifadan boshlanishi kerak. Har bir ilovada uning raqamini aks ettiradigan sarlavha bo'lishi kerak (Masalan: 1-ilova). Ilovalar joylashtirilgan sahifalar betlanadi, ammo kurs ishi hajmiga kirmaydi.

Ilovalar kurs ishining ko'rgazmaliligini oshiradi, unda aks ettirilgan hodisalar tabiati va o'zaro bog'liqligini hamda ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq ochishga yordam beradi.

### **KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISH**

Kurs ishining umumiy hajmi (ilovalarsiz) A4 formatidagi 40 betdan 44 betgacha etib belgilangan. Kurs ishi hajmi tanlangan mavzu, ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik va ishning texnik bajarilishi **bosma tarzda** bo'ladi.

Matnni quyidagi qoidalarga amal qilib yozish (pechatlash) kerak: bet chegarasidan matngacha- chap tomondan 20 mm , o'ng tomondan 10 mm, yuqorigi va pastgi chegaralardan 20 mm. Sahifa raqami pastki o'ng burchakka yoziladi. Abzaslar 10 mm bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Kurs ishida qatorlar orasidagi interval 10 mm bo'lishi kerak. Qalin shrift faqatgina sarlavhalarda ishlatilishi mumkin. Kursiv shrift ishlatilishi mumkin emas. Kurs ishi lotin alifbosi harflarida yozish talab etiladi.

Iqtiboslar to'g'ri rasmiylashtirilishi zarur, ya'ni muallif nutqi qo'shtirnoq ichida berilishi va manbasi aniq ko'rsatilishi kerak.

### **KURS ISHLARINI BAHOLASH TARTIBI**

Kurs ishini baholash mezoni talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qilishi zarur.

Kurs ishlari sifat darjasiga qarab tabaqalangan holda baholangani maqsadga muvofiqdir. Reyting tizimi bo'yicha talabanning kurs ishini 5 ballik tizim asosida baholanadi.

№	Belgilangan ball	Baholash mezonlari
1	“A’lo”- “5” baho	Rejadagi savollarning mazmuni ijodiy yondoshilgan holda yoritilgan bo’lsa, foydalanilgan adabiyotlar va ma’lumotlarga snoskalar (ilovalar) berilib, adabiyotlar ro’yxatida ko’rsatilgan bo’lsa va ish bo’yicha berilgan savollarga aniq va to’liq javob berib, o’zining fikrini erkin bayon etsa bunday tayorlangan ishlarga «a’lo» baho qo’yish mumkin.
2	“Yaxshi” “4” baho	Agar rejadagi 4-5 savolning 3-4 tasiga to’liq javob yozilgan bo’lib, bittasiga etarlicha javob berilmagan bo’lsa, himoyada talabanning javob berishiga qarab «yaxshi» baho qo’yish mumkin.
3	“Qoniqarli” “3” baho	Rejadagi 4-5 ta savolning bitta yoki ikkitasining mazmuni yoritilib, qolgan savollarga javob berilmagan bo’lsa, to’g’ri yozilgan javoblar ham darslik va kitoblardan ko’chirilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati yo’q, ilovalar berilmagan va boshqa shu kabi kamchiliklar bo’lsa, ko’rsatilgan kamchiliklar himoyagacha bajarilsa, talabanning javobini hisobga olib bu kabi ishlarni «qoniqarli» baholash mumkin. Agarda talaba yuqoridagi kamchiliklarni yozma ravishda bartaraf etmasa, kurs ishi «qoniqarsiz» baholanadi.

4	<p>“Qoniqarsiz” “2” baho</p>	<p>Kurs ishida quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, u taqriz yozish davridayoq «qoniqarsiz» baholanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- reja noto'g'ri va umuman qoniqarsiz tuzilgan bo'lib, mavzuning mazmuniga mos tushmasa;</li> <li>- kurs ishi e'tiborsizlik bilan pala-parish bajarilsa;</li> <li>- javoblar asosan o'quv adabiyotlaridan ko'chirilgan bo'lsa;</li> <li>- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bo'lmasa;</li> <li>- foydalanilgan adabiyotlarga va ma'lumotlarga ilovalar berilmagan bo'lsa;</li> <li>- rejadagi savollar mohiyati biri ikkinchisidan ajratilmagan holda berilsa:</li> <li>- kurs ishini talabning o'zi xusni xati bilan bajarmagan bo'lsa.</li> </ul>
---	----------------------------------	---

**“ KORXONA IQTISODIYOTI ” FANIDAN KURS ISHI MAVZULARI**

1. Iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlash sharoitida korxonada mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash asoslari
2. Korxonaning real investitsiyalarini boshqarish
3. Korxonaning investitsion loyihasini baholash (korxonada misolida)
4. Korxonada narxni shakllantirish va narx siyosati
5. Mahsulot sifatini boshqarish va korxonaning raqobat strategiyasi.
6. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada foydani shakllantirish va undan samarali foydalanish yo'llari
7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash
8. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari
9. Korxonada raqobatbardoshligini oshirishda pul okimlarini boshqarish
10. Korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash yo'llari
11. Sanoat korxonalarida personalni samarali boshqarish
12. Korxonada mehnatga haq to'lashni tashkil etish va takomillashtirish
13. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash yo'llari va rivojlantirish tadbirlari
14. Asosiy vositalar amortizatsiyasi va korxonaning amortizatsiya siyosati
15. Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi
16. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonasi rentabelligini oshirishning asosiy omillari
17. Korxonani modernizatsiyalashda lizingning o'rni.
18. Xorij investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyati (korxonada misolida)

19. Korxonaning biznes-rejasi, uni tuzish metodikasi (korxonada misolida).
20. Korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi
21. Sanoat korxonasida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari va yo'llari
22. Investitsion loyihalarni baholash usullari
23. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonada aylanma mablag'larini normalashtirish.
24. Investitsiya jarayonini moliyalashtirish manbalari
25. Korxonaning aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini ko'rsatkichlarini baholash
26. Korxonaning kadrlar siyosati
27. Korxonada ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish manbalari va omillari
28. Korxonada investitsion faoliyati samaradorligini baholash va uni oshirish yo'llari
29. Foyda va rentabellik korxonada faoliyati samaradorligini ko'rsatkichlari sifatida
30. Korxonada xodimlari va ular mehnatidan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari
31. Korxonada narxni shakllantirish xususiyatlari (korxonada misolida).
32. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'nalishlari
33. Korxonada daromadlari va ularning manbalari (korxonada misolida)
34. Korxonada mehnat unumdorligini oshirish yo'llari (korxonada misolida)
35. Korxonaning asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ko'rsatkichlarini baholash
36. Korxonada foydasini shakllantirish manbalari va undan foydalanish yo'nalishlari
37. Korxonada ishlab chiqarish korxonasi asosiy fondlari dinamikasi va tuzilishini tahlil qilish

- 38.Korxonada mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlari (korxonada misolida)
- 39.Ishlab chiqarish tannarxi va uni pasaytirish yo'llari (korxonada misolida)
- 40.Korxonada xodimlarini moddiy rag'batlantirish va uni takomillashtirish yo'llari
- 41.Korxonaning narx strategiyalari
- 42.Korxonalarda mahsulot sifatini oshirish yo'llari
- 43.Korxonaning moliyaviy holatini baholash
- 44.Korxonada narxni shakllantirishning asosiy usullari
- 45.Korxonada raqobatbardoshligini baholash va uni oshirish yo'llari
- 46.Tashkilotning narx siyosati (korxonada misolida)
- 47.Ijara va lizing:ularning korxonada faoliyati uchun ahamiyati
- 48.Korxonaning aylanma mablag'lari va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari
- 49.Mahsulot raqobatbardoshligi va uni oshirish yo'llari
- 50.Korxonaning aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini baholash
- 51.Korxonaning kadrlar siyosati
- 52.Korxonada ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish manbalari va omillari
- 53.Korxonada investitsion faoliyati samaradorligini baholash va uni oshirish yo'llari
- 54.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash
- 55.Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari
- 56.Korxonada raqobatbardoshligini oshirishda pul oqimlarini boshqarish
- 57.Korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash yo'llari
- 58.Sanoat korxonalarida personalni samarali boshqarish
- 59.Mahsulot raqobatbardoshligi va uni oshirish yo'llari
- 60.Tashkilotning narx siyosati (korxonada misolida)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI**

**IQTISODIYOT  
KAFEDRASI**

**«KORXONA IQTISODIYOTI» fanidan**

**KURS ISHI**

**Mavzu:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Bajardi:** \_\_\_\_\_ *guruhi talabasi* \_\_\_\_\_  
(imzo) (ismi sharifi)

**Kurs ishi himoya qilingan sana “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 y.**

**Baho “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_**

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_  
(imzo) (ismi sharifi)

**Komissiya a'zolari:** \_\_\_\_\_  
(imzo) (ismi sharifi)

\_\_\_\_\_  
(imzo) (ismi sharifi)

**Buxoro – 2022 yil**

**KURS ISHI MAVZUSI REJASINI TUZISH BO'YICHA NAMUNA**

Mavzu: Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi

**MUNDARIJA :**

Kirish.....	4
1-bob. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati	
1.1. Asosiy vositalarning mohiyati va ularning korxonada faoliyatidagi o'rni.....	7
1.2. Korxonalarda asosiy vositalarni baholash, ularning eskirishi va ta'mirlash.....	11
1.3. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va uni hisoblash usullari .....	15
2-bob. Korxonalarda asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari tahlili va samaradorligini oshirish yo'llari	
2.1. Korxonalarining iqtisodiy tavsifi.....	19
2.2. Korxonalarining asosiy fondlari holati tahlili.....	22
2.3. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni oshirish yo'llari.....	26
Xulosa.....	29
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	31
Tayanch iboralar.....	32
Ilovalar.....	33



**ILMIY RAHBARNING KURS ISHIGA TAQRIZ BLANKASI**

**KURS ISHI UCHUN TAQRIZ**

**Iqtisodiyot va turizm fakulteti**

**Iqtisodiyot kafedrası**

**“Korxoná iqtisodiyoti ” fani**

Guruh.....

Talaba familiyasi va ismi-sharifi.....

Kurs ishi mavzusi.....

Kurs ishining  
tarkibi.....

Kurs ishi himoyasida talabaga berilgan savollar ro'yxati:.....

Jadval va grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning  
ko'rsatgichi).....

Kurs ishining ijobiy tomonlari.....

Kurs ishining kamchiliklari.....

Kurs ishiga qo'yilgan baho.....

Kurs ishiga rahbarning ismi-sharifi va imzosi.....

**TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: «Ўзбекистон», 2016. 56-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: «Ўзбекистон», 2017. 104-бет.
3. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир (Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи, 2018 йил 7 декабрь).– «Халқ сўзи» газетаси, 2018 йил 8 декабрь, № 253 (7211).
4. Қадр-қимматим, таянчим, ва ифтихоримсан, мустақил Ўзбекистон. Т.Маънавият. 2013.
5. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир// «Халқсўзи», 2018 йил 8 декабрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Халқ сўзи», 2018 йил, 29 декабрь. № 271–272 (7229–7230)
7. Словарь современной экономической теории Макмиллана. – М.: 1997. 471-б.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliyas-28-12-2018>.

9. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови». Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. – Т.: «Ўзбекистон», 2017. 18-б. (48 б.)
10. R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014, – 424 bet.
11. B.A. Adukarimov va boshq. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. – Т.: «Fan va texnologiya», 2013, – 368 bet.
12. E.Sh. Shodmonov, D.Sh. Bababekova., B.O. Tursunov “Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Т.: 2020 yil. 512-bet.
13. M.Y. Isakov, N.D. I. Ro‘ziyeva. Korxonalar rivojlantirish strategiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent : TDIU-2019, 400 bet
14. Волкова О.И., Девяткина О.В. Экономика предприятия. Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2008. – 601 стр.
15. Горфинкеля В.Я., проф. Швандара В.А. Экономика предприятия. Учебной пособие. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008, – 718 стр.
16. Грузинов В.П. Экономика предприятия. Учебник. 2-издание. Учебное пособие. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008, - 295 стр.
17. Кантор Е.Л, и др. Экономика предприятия. Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2009. – 224 стр
18. Mahmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Т.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005, – 170 bet.
19. Экономика предприятия (организации): Учебник / О. В. Баскакова, Л. Ф. Сейко. —М.:Издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, 2013. — 372 с.

20. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
21. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
22. [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
23. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
24. [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

